

UVAYSIY IJODIDA IJTIMOIIY FALSAFIY QARASHLAR, TASAVVUF

Ahrorova Madina Rahmatovna

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika institute assistant o'qituvchisi

madinaakhrorova@gmail.com

tel:99893 680 44 15

Annotatsiya

Qo'qon adabiy muhitida bir guruh shoirlarga ustozlik qilgan Jahonotin Uvaysiy o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga o'zining muhim va benazir maqomi bilan yuksak hissa qo'shdi. Ayollar tasavvufi tushunchasini yangi pog'onaga olib chiqdi. Badiiy jihatdan pishiq, go'zal she'riyati nafaqat shoirlar uchun, balki shoirlar uchun ham mahorat maktabi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Uning shaxsiyatida jasur, fidoiy va haqgo'y shoirlarga xos axloqiy ruhiy sifatlar ustunlik qiladi. Maqolada ushbu sifatlar falsafiy mushohada qilingan. Falsafiy qarashlarining g'oyaviy manbasi sifatida tasavvuf Uvaysiy ijodida qay tariqa kuylanganligi maqolada tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, fano, hirqa, qaraniy, so'fiylik, oriflik, zohir, avliyo, shayx

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В ТВОРЧЕСТВЕ УВАЙСИ, СУФИЗИМ.

Жаханотин Увайсий, воспитавший группу поэтов в литературной среде Кокан, своим важным и уникальным статусом внес большой вклад в развитие узбекской классической литературы. Она вывела понятие женского мистицизма на новый уровень. Его художественно зрелая и красивая поэзия служит школой мастерства не только поэтам, но и поэтам. В его личности преобладают нравственные и духовные качества, свойственные смелым, самоотверженным и честным поэтам. В статье эти качества сделаны с философской точки зрения. В статье анализируется, как суфизм был воспет в творчестве Увайси как идейный источник его философских воззрений.

Ключевые слова: tasavvuf, fano, hirqa, qaraniy, so'fiylik, oriflik, zohir, avliyo, shayx

Uvaysiylik tarixiga murojaat qilinsa, hazrati Vaysal Qaraniyning Alloh Rasuliga bog'lagan pok muhabbati namoyon bo'ladi: «Uvays hazratlari chinakam ishqqa muhtalo bo'lgan edilar. Alloh Rosulining nurli jamolini ko'rishni orzu qilib Yamandan nur o'lkasi Madinaga keladi, ammo oxirat mujdasini ko'rolmay, ortga qaytadi. Alloh Rasuli (unga) muborak hirqalarini hadya qiladilar» [2]. Hazrat Uvays Qaraniy Alloh Rasulini botin ko'zi bilan ko'rgan. Shuning uchun «Allohning Payg'ambari aytgan: Uvays Qaraniy ehson va mehribonligi bilan tobe'inlarning yaxshisidir» [3]. Uvaysiylikning asl mohiyati esa, zohirda hech bir pirga ehtiyoj sezmay, xuddi Uvays Qaraniy singari Payg'ambar (SAV) ruhidan tarbiya topishlikdadir. Bu to'g'rida Abdurahmon Jomiy shunday deydi: «Farididdin Attor aytadilarki, avliyolardan shunday bir toifalar bor, ularga uvaysiy deyiladi. Ko'pgina ulug' shayxlar so'fiylik yo'liga kirishdan oldin xuddi shunday sharafta muayyasar bo'lishgan» [4]. Shayx Abulqosim Gurgoniy, Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Abusaid Abulxayr, Shayx Abulhasan Xaraqoniy singari buyuk zotlar shular jumlasidandir.

Demak, shoiraning Uvaysiy, deya taxallus tanlashi bejiz bo'lmagan. «...Bu toifadin zohir yuzidin piri ma'lum bo'lmasa va mashoyixdin birining ruhi oni tarbiyat qilg'on bo'lsa, oni Uvaysiy derlar». – deb yozadi Alisher Navoiy [5].

Adabiyotshunos Sultonmurod Olim Uvaysiyni «Qadim mashoyixlarimizdan birining ruhi kelib tarbiya qilgandir» [6], — deb taxmin qiladi va shoiraning ruhiy holati ifodalangan quyidagi baytini misol keltiradi:

*Vaysiy beriyozat deb sahl etma, ey orif,
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiymen.*

Shoira adabiyotda taraqqiyparvar namoyandalarning qarashlari asosida maydonga kelgan inson taqdiri, shaxs erki va ma'rifatparvarlik g'oyalarida latif va dilkash asarlar yaratgan, asarlarida insonni e'zozlash, odamlarni tabiat va xayot noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishga undash, do'stlik, vafo va sadoqat haqidagi ulug'vor niyatlarini Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy talqinlar bilan asoslagan holda ijodiy barkamollikka erishgan. Demak bundan ko'rinib turibdiki, Uvaysiy tasavvufning Naqshbandiya tariqati izidan borib tarkidunyochilikni rad etgan. Uning she'rlarida tariqatning talab va qoidalariga taalluqli bo'lgan talqinlar ko'p uchraydi: Uvaysiy o'z asarlarida yuksak odamiylikni, shu odamiylikni qalb to'rida avaylovchi vafodor yorni ulug'laydi, uni Quyosh bilan qiyos qiladi. Quyosh xar tong ufqdan bosh ko'tarib, o'zining otashin nuri bilan olamga, odamlarga o'z mehr va shafqatini

sochadi. Shoiralar yor va oftob tashbihlaridan qarshilantirish san'ati orqali eng go'zal tuyg'ular silsilasini yaratadi. Uning lirik qahramoni mushohadakor donishmand, vafoli oshiq timsolida gavdalanadi.

Uning anor haqidagi mashhur chistoni o'zining muhim mazmuni va yuksak badiiyligi bilan shoiralar ijodining yorqin bir sahifasi sifatida ko'zga tashlanadi:

Bu na gumbazdur, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,

Necha gulgun pok qizlar manzil aylabdur makon?

Tuynugin ochib, alarning holidan olsam xabar,

Yuzlarida parda tortug'liq tururlar, bag'ri qon.

Shoiralar shu to'rt misr bilan o'sha davr ijtimoiy-siyosiy vaziyatni baholasak bo'ladi. Xon xarami va undagi qizlar taqdirini bir anor misolida tashbeh qilishning o'zi shoiraning falsafiy qarashlari mohiyatini ochib beradi.

Uvaysiy xayotlik davridayoq nafis lirikasi bilan mashhur bo'lgan va zamondoshlarining e'tiborini qozongan. Lirik she'rlaridan tashqari, uning „Shahzoda Hasan“, „Shahzoda Husan“ kabi liroepik asarlari va „Voqeoti Muhammad Alixon“ kabi tarixiy dostonlari mavjud. Shoiraning liroepik dostonlari islom tarixi bilan bog'liq voqealar asosida yaratilgan.[7]

Uvaysiy asarlari o'zining latif mazmuni va dilkash badiiyligi bilan xalq ommasi orasida keng yoyilgan, hofizlar, xonandalar tomonidan maqom va xalq ohanglari yo'lida kuylanib kelinadi. Uning xattotlar tomonidan ko'chirilgan 3 nusxa qo'lyozma devoni O'zbekiston Fanlar akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanadi.

Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar uning asarida, ayrim tazkiralarda yetib kelgan. „Majmuai shoiran“ tazkirasida (1821) ham shoiralar ijodiga munosabat bildiriladi. Ijodini izchil ilmiy yo'nalishda o'rganish 30-yillarda boshlangan. Uvaysiy ijodi A.Qayumov, T.Jalolov, I.Haqqulov, E.Ibrohimova v.b. tomonidan o'rganilgan.

Mumtoz adabiyot namoyandalari faqru fano obrazini yetarli darajada yoritganlar. Uvaysiy g'azallarida fano haqiqatining ifodasi o'ziga xos xususiyatga egadir. Tasavvuf istilohiga ko'ra, faqrlik biz tushungan ma'nodagi kambag'allik, bechoralik emas, balki Alloh oldidagi g'ariblik, ojizlikdir. Ushbu qarashga ko'ra, „faqir shunday kishiki, u faqat Haq ma'rifatiga yetishga muhtoj bo'ladi, xolos“ [9]. Fano esa tariqatning to'rtinchi maqomi bo'lib „tarki dunyo qilib, hayotga qo'l siltash emas, balki olami botinni poklashdir“ [2]. Ayni paytda, „Shu martabada komillik

rutbasini qozonish ham”- deb yozadi adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov [3]. Fano yo‘qlik olamining ifodalari ham uvaysiylik hisoblanadi. Shoir bu ifodalarni tasavvufiy talqinlar bilan asoslagan holda ijodiy barkamollikka erishgan. Uvaysiy g‘azallarida tariqatning talab va qoidalariga mos talqinlar, qaydlar ko‘p uchraydi. Insonning komillik darajasiga yetishlikdagi qiyinchiliklar ifodasi shoir she‘riyatida quyidagi kabi o‘z aksini topadi:

*Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo‘q ogoh,
Qabih guftor mardumdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.*

Fano holini ko‘pchilik anglashga qodir emas. Shuning uchun “Qabih guftor mardumlar” – qabohat, iflos gaplar aytuvchi, g‘iybatchi odamlar “Fano mardumlariga” doimo ozor yetkazib kelishgan. Shoir xuddi shu haqiqatga e‘tiborini qaratar ekan, o‘zining ko‘ngli dog‘ bo‘lganini ta‘kidlaydi. Demak, uningcha fano ahli o‘zini haqiqiy ishqdan mahrum kimsalardan uzoq bo‘lishini ham o‘ylashi ham kerak. Ammo shoiraning uqdirishicha, fano “Hol ilmi”dan yuzaga keladi. Izzat –ikrom talabi esa zohiriy bir ishdir:

*Ki izzat qoldin, hol ilmidin bo‘lgay fano hosil,
Kelan atfol toshi, bu fano ahligadur davlat.*

Tasavvufda odamlar ikki guruhga ajratiladi. Biri – qol ilmi, ikkinchisi hol ilmi. Qol ahli dunyoga bog‘langan, da‘vo va og‘zaki fikr mulohazalarga tayanib kun o‘tkazuvchi kimsalar. Hol ahli esa ishq va ma‘no sohiblaridir. Shoiraning ta‘kidlashi bo‘yicha, fano hol ilmidan hosil bo‘lsa, kishining izzat nafi turli gap so‘zlar(qol)dan ozor topmaydigan kayfiyatga yetishadi.[12]

Izzatparastlik, dunyosevarlik hissiyotlari fano zavqini anglay olmaydiganlar kimsalar uchun xosdir. Ular yosh bolalarga o‘xshab “tosh o‘yini”dan ovunishganki, bunday kimsalardan yetgan ranju ozorlarga alohida ahamiyat bermasdan, ularni bir “davlat” kabi qabul aylash lozim. Hol ilmidan fano hosil bo‘lishi va bu natija fano ahli uchun davlat ekanligi o‘zining tiniq ifodasini topgan bu baytda.

Dunyo tashvishlari bilan band insonning hayotida ISHQ tubdan burilish yasaydi. Avval u hayrat sahosida yolg‘iz yurib, o‘z haqiqatini izlaydi. Hayrat esa ishqning bir lahcha cho‘g‘idan hosil bo‘lib, oshiq qalbini kuydira boshlaydi. Endi u bir tutam nur bilan olisha boshlaydi. Uning botinida o‘rnashib yotgan kibr, g‘urur, hasad, kin, adovat, qahr, gumrohlik kabi o‘nlab illatlar o‘z davosini topa boshlaydi. Boshqa oshiqqlar kabi unda ham malolat tuyg‘usi yo‘qolishi, musht berganga ta‘zim bajo etish hollari o‘sha yo‘qlik oqibatidan yuzaga keladiki, u qahrga mehr bilan javob

bera oladi. Oshiq tomonidan yetkazilgan har qanday jabru sitamlarni xush kayfiyatda qabul qilguvchi bo'ladi. Uning bu majnunvor kayfiyati o'zgalarda taajjub uyg'otadi. O'sha o'zgalardan kelayotgan tahna, malomat toshlarini ham u o'ziga davlat, deya qabul qiladi. Otilayotgan bu toshlarni (atfol bolalar) go'daklarning bilib bilmay yetkazgan aziyatlari kabi osongina kechira olishida ham hikmat bor. Sababi, u allaqachonlar o'z haqiqatini, o'zligini topib ulgurgan, dili poklangan – komil inson. [9]

Tasavvufdagi zohidlik va oriflik darajalarini anglab yetgan shoira mazkur baytda yor oldida jonni qurbon qilish kerakligini, bu amal oriflar uchun azob emasligini bildiradi. Zohidlar esa hali bunday maqomga yetmagan. Jonni yor yo'lida qurbon aylash «Har mohi tobonadan kelmas»ligini his etgan shoira she'rlarining aksariyatida orif qalbi kechinmalari uz aksini topadi. Holbuki, oriflik ham uvaysiylikdir. Orif qalbi ham pinhona ishq, g'oyibona tarbiyat zavqidan bahra oladi. Jahon otin Uvaysiy she'riyatining asosiy yo'nalishi Ishqi Ilohiy bilan bog'liq. Shoira she'rlarida uvaysiylikning boshqa shakllarini hali ko'p kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. Хужанд, 1997. 78 бет.
- 2 Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. –Тошкент: Фан, 1995. 44 бет
- 4Увайсий. Девон. -Тошкент. 1959, 84-бет.
5. Jumaхo'ja N. Ki bulbul nola, afg'on aylamakni mendin o'rgandi. Muloqot. 1999. N:2.
6. Hayitmetov A. Jahon Otin Uvaysiy lirikasi. Sharq yulduzi. 1982. 12-son, 161- bet
7. Abduqodirov A. Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug'ati. -Xo'jand, 1997. 78-bet
8. Komilov N. Tasavvuf yoxud komil inson axloqi. Birinchi kitob. - Toshkent:Yozuvchi, 1996. 26-bet.
- 9.SHARQ MUMTOZ SHOIRALARI ASARLARIDA IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLAR, HAMDA GENDER TENGLIGI MASALASI. (NOZIMAXONIM IJODI MISOLIDA) Ahrorova Madina Rahmatovna "Sharq tillarini o'qitishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 24 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

10. Bargi xazon gullar yoxud erta turmush va uning oqibatlari/ Sitabonu Amriddinova Madina Ahrorova

"Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022 / Volume 3 Issue 4

11. O'ZBEK MUMTOZ SHOIRLARI IJODIDA GENDER TENGLIGI MASALASI. Ahrorova Madina Rahmatovna stajyor o'qituvchisi Samarqand Davlat chet tillar instituti E-mail: akhrorova.madina@mail.ru (O'zbekiston, Samarqand.)

12. G'ARB VA SHARQ AYOLLARINING IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARIDAGI TAFOVUTLAR Ergasheva Sevinchbonu Ahrorova Madina ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР:” ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР. Декабрь 2022 2-қисм Тошкент

